



TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH SIFATINI OSHIRISHDA KREDIT RISKLARINI SAMARALI BOSHQARISH YO'LLARI

Ikramov O.G.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Kredit portfeli tarkibiga ta'sir etuvchi omillar, kreditlash jarayonining bosqichlari hamda kredit risklarini baholashning xalqaro yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) holati o'rganilib, kredit risklarini samarali boshqarish va kredit portfeli sifatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kredit portfeli, kredit riski, muammoli kreditlar (NPL), kreditga layoqatlilik, kredit monitoringi, kredit siyosati, Bazel standartlari, risk-menejment, tijorat banklari, kredit sifati.

Tijorat banklari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan kreditlash jarayoni iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, bank aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kredit portfeli bank tizimi uchun eng yuqori darajadagi risk manbai hamdir. Shu bois kredit portfelining tarkibiy tuzilishini belgilovchi omillarni ilmiy asoslash, kreditlash jarayonining bosqichlarini to'g'ri tashkil etish hamda muammoli kreditlar darajasini minimal chegarada ushlab turish masalalari o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

«2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da belgilangan vazifalar doirasida bank-moliya tizimini isloh qilish





va uning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunda Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Osiyo taraqqiyot banki va Bazel bank nazorati bo'yicha qo'mita kabi xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik muhim o'rin tutadi.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda tijorat banklarining moliyaviy vositachilik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Banklar aktivlarining asosiy qismini kreditlar tashkil etganligi sababli kredit portfeli sifati bankning moliyaviy barqarorligi va daromadliligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, kredit risklarini samarali boshqarish, qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligini chuqur baholash va muammoli kreditlarning oldini olish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar kredit risklarini boshqarish tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, kredit portfeli tarkibidagi o'zgarishlar va ayrim banklarda muammoli kreditlar ulushining yuqoriligi kreditlash jarayonining barcha bosqichlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur holat kredit risklarini samarali boshqarish mexanizmlarini tahlil qilish va amaliy takliflar ishlab chiqishni talab etadi.

Jahonda kuzatilayotgan noqulay moliyaviy holat bo'lishiga qaramasdan mamlakatimizning barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlari o'sib borish tendensiyasini qayd etmoqda. Buning asosiy sababi sifatida mamlakatda olib borilayotgan puxta o'ylangan va izchil moliyaviy siyosat, xorijiy investorlarni imkon qadar jalb qilish va investitsiyalar hajmida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning ulushini oshirish, ishlab chiqarish sohasi faolligini oshirish, davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashni davom ettirilishi bo'lmoqda.

Mamlakatning bank tizimi respublika iqtisodiyotida alohida ahamiyatga ega ekanligi hamda uning barcha sohalarga xizmat ko'rsatishini inobatga



oladigan bo'lsak, ushbu sohani isloh qilish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda, shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotini rivojiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni"¹ ijrosini ta'minlashga alohida e'tibor berib kelinmoqda va ko'zda tutilgan vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Bank tizimi barqarorligini ta'minlash, ularning faoliyat ko'lamini yanada kengaytirish, bank operatsiyalari sifati va sonini oshirish bo'yicha muntazam xorijiy hamkorlar, Xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Osiyo taraqqiyot banki, Bazel qo'mitasi va boshqalar) bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Bunda banklarni tartibga solishda qo'llaniladigan nazorat indikatorlari ishlatilmoqda va xorijiy ekspertlar bilan uning talablari vaziyatga moslashtirib bormoqda, mezonlari shakllantirilmoqda.

Bank kredit portfeli strukturasini aniqlovchi muhim faktorlardan biri - bu ayni bank xizmat ko'rsatadigan bozor sektorining spesifikasidir. Har bir bank o'z bozor sigmenti mijozlarining qarz mablag'lariga bo'lgan extiyojini hisobga olishi kerak. Masalan, shahar chekkasidagi uylar va kichik magazinlarga ega rayonda joylashgan bo'lsa, asosan uy binolari garovi ostida, ipoteka krediti, avtomobil, uy jixozlari, umuman uy xo'jaligini yuritish uchun xarajatlarni qoplashga kreditlar beradi, aksincha katta shaharlarda, ofislar, katta univermaglar, sanoat korxonalari orasidagi banklar odatda o'z kreditlarini asosan tijorat firmalariga tovar materiallar zapaslarini to'ldirishga, jihozlar sotib

¹ <https://lex.uz/docs/5841063>





olish va ish haqiga yo'naltiradilar.

Albatta, banklar kredit berayotganlarida o'zlari xizmat ko'rsatayotgan regionlarga to'liq bo'lib bermaydilar. Kerakli kredit mablag'larini to'liq yoki qisman ular boshqa banklardan olishlari mumkin, bu holat agar bank xizmat qilayotgan region iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelsa, zarar ko'rish riskini kamaytiradi.

Bank o'lchami ham uning kredit portfeliga ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi, ayniqsa bir qarz oluvchiga beriladigan kreditning maksimal miqdorini belgilovchi kapitali hajmi muhimdir. Katta banklar odatda ulgurji kreditorlar hisoblanadilar, ular o'zlarining kreditlarining asosiy miqdorini korporatsiyalar va boshqa firmalarga beradilar. Kichikroq banklar esa fuqarolarga kichik ssudalar, uy garovi ostida xususiy shaxslarga kreditlar, ferma va rancho egalariga kichik kreditlar shaklidagi yakka holdagi kreditlarni berishga yunaltirilganlar.

Bundan tashqari kredit portfeli tarkibiga kreditlashning turli ko'rinishlari sohasida menejrlarning tajriba va malakasi, hamda o'z kredit inspektorlariga ma'lum ko'rinishdagi kreditlarni bermasligi ko'rsatilgan bank kredit siyosati ham ta'sir ko'rsatadi.

Kredit portfelining tarkibi ma'lum darajada bankning kutilayotgan daromadiga ham bog'liq, chunki bank odatda kutilayotgan daromadi maksimal bo'lgan ssudalarni berishni ma'qul ko'radi.

Tijorat banklari sifatli kredit portfelini shakllantirish uchun avvalambor kreditlash jarayonini to'g'ri va sifatli olib borishlari zarur. V. M. Usoskin kreditlash jarayonini bir necha bosqichlarga bo'ladi:

- kredit olish uchun berilgan arizani ko'rib chiqish va bo'lg'usi qarz oluvchi bilan suhbatlashish;
- mijozning kreditga layoqatliligini tahlil qilish va kredit bo'yicha riskni



baholash;

- kredit kelishuvini tayyorlash va imzolash;
- kelishuv shartlarining bajarilishini va kreditning qaytarili-shini nazorat qilish.

Kreditlash jarayonini tashkil qilishga bunday yondashuv, bizning fikrimizcha, birmuncha torroqdir. Panova G. S. kreditlash jarayonini quyidagicha tashkil qilishni tavsiya etadi. U kreditlash jarayonini quyidagi bosqichlarga bo'лади:

- 1) Kredit arizalari portfelini shakllantirish;
- 2) Potensial mijozlar bilan suhbatlar o'tkazish;
- 3) Kredit berishning maqbulligi va uni berish shakli to'g'risida qaror qabul qilish;
- 4) Kredit ishini rasmiylashtirish;
- 5) Mijoz bilan u ssuda olgandan keyin ham ishlash;
- 6) Kreditning foizlar bilan qaytarilishi va kredit ishining yopilishi.

Sh. Abdullaeva esa, bizning fikrimizcha yuqoridagi har ikkala yondashuvning umumiy lashgan ko'rinishini tavsiya etadi. Uning fikricha kreditlash jarayoni quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- kredit olish uchun berilgan mijozning ariza talabnomasini ko'rib chiqish;
- qarz oluvchining to'lovga va kreditga layoqatliligini bank tomonidan o'rganib chiqilishi;
- kredit qo'mitasining qarori;
- kredit bitimini rasmiylashtirish;
- kreditning berilishi;



- ssuda va u bo'yicha foiz to'lashni bank tomonidan nazorat qilinishi.

Tijorat banklari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan kreditlash jarayoni iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, bank aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kredit portfel bank tizimi uchun eng yuqori darajadagi risk manbai hamdir. Shu bois kredit portfelining sifatli tarkibini shakllantirish, uning tuzilishini belgilovchi omillarni ilmiy asoslash, kreditlash jarayonining bosqichlarini to'g'ri tashkil etish hamda kredit portfelidagi muammoli kreditlar darajasini minimal chegarada ushlab turish masalalari o'z dolzarbligini yo'qotmaydi

1-jadval.

Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida

No	Bank nomi	Kredit portfel	Muammoli kredilar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
Jami		604 002	18 055	3,0%
Davlat ulushi mavjud banklar		404 469	12 834	3,2%
1	O'zmilliybank	105 382	2 989	2,8%
2	Agrobank	81 108	2 698	3,3%
3	O'zsanoatqurilishbank	64 936	1 642	2,5%
4	Asaka bank	41 464	1 502	3,6%
5	Xalq banki	33 600	1 032	3,1%



6	Biznesni rivojlantirish banki	24 552	1 110	4,5%
7	Mikrokreditbank	20 278	894	4,4%
8	Aloqa bank	18 810	477	2,5%
9	Turon bank	14 338	489	3,4%
Boshqa banklar		199 533	5 221	2,6%

2026 yil holatiga ko'ra, O'zbekiston tijorat banklarining jami kredit portfeli 604,0 trln so'mni tashkil etib, muammoli kreditlar (NPL) hajmi 18,1 trln so'mga yoki jami kreditlarning 3,0 foiziga teng bo'lgan. Davlat ulushi mavjud banklarda mazkur ko'rsatkich 3,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, boshqa tijorat banklarida 2,6 foizni tashkil etgan.

Banklar kesimida muammoli kreditlar ulushi eng yuqori Biznesni rivojlantirish bankida (4,5%) va Mikrokreditbankda (4,4%), eng past ko'rsatkich esa O'zsanoatqurilishbank hamda Aloqa bankda (2,5%) qayd etilgan. Shuningdek, Asaka bankda mazkur ko'rsatkich 3,6 foiz, Agrobankda 3,3 foizni tashkil etgan.

Ushbu natijalar ayrim banklarda kredit risklari darajasi yuqoriligini ko'rsatib, mijozlarning kreditga layoqatligini yanada aniq baholash, kredit monitoringini kuchaytirish va Bazel standartlariga muvofiq risk-menejment tizimini takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari kredit portfeli sifati banklarda kredit risklarini boshqarish samaradorligiga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Muammoli kreditlar ulushini kamaytirish uchun qarz oluvchilarning kreditga layoqatligini kompleks baholash, kredit monitoringini kuchaytirish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish va Bazel standartlari hamda IFRS 9 talablariga asoslangan risk-menejment mexanizmlarini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.





Shuningdek, raqamli texnologiyalar, scoring modellari va ichki reyting tizimlaridan samarali foydalanish kredit qarorlari sifatini oshirish, muammoli kreditlar ulushini qisqartirish hamda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- tijorat banklarida qarz oluvchilarni baholashda moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarni qamrab olgan zamonaviy kredit scoring modellarini keng joriy etish;
- Bazel III hamda IFRS 9 talablariga muvofiq kutilayotgan kredit yo'qotishlari (ECL)ni baholash va stress-testlar natijalarini kredit qarorlari qabul qilish jarayoniga integratsiya qilish;
- muammoli kreditlar ulushi yuqori bo'lgan banklarda kredit monitoringi, erta ogohlantirish (Early Warning System) va ichki reyting (IRB) tizimlarini takomillashtirish.

Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi kredit risklarini pasaytirish, muammoli kreditlar ulushini qisqartirish, kredit portfeli sifatini oshirish hamda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Basel Committee on Banking Supervision. Basel Framework. Bank for International Settlements, 2024.
2. Basel Committee on Banking Supervision. Guidelines on Credit Risk and Accounting for Expected Credit Losses. Bank for International Settlements, 2017.



3. Hull J.C. Risk Management and Financial Institutions. 6th ed. John Wiley & Sons, 2022.
4. Rose P.S., Hudgins S.C. Bank Management & Financial Services. 11th ed. McGraw-Hill Education, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi to'g'risida yillik hisobot. Toshkent, 2025.
7. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», so'nggi nashr.
8. Усоскин В.М. Банковские операции. – Москва.
9. Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. – Москва.
10. Mishkin F.S., Eakins S.G. Financial Markets and Institutions. 10th ed. Pearson, 2024.